

# Biz tinchlik istaymiz!

**Tarbiyaviy mashg'ulotning maqsadi:** o'quvchilarda vatanga, ona yurtga muhabbat, milliy qadryatlarga xurmat, yurt tinchligi, farovonligini e'zozlash tuyg'usini tarbiyalash.

**Tarbiyaviy mashg'ulot jihozlari:** DVD, disk, tarqatma material rasmlar, plakat.

**Tarbiyaviy mashg'ulotning borishi:**

**Tashkiliy qism:**

O'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarligi, navbatchi axboroti

**O'qituvchi:**

Qani bolajonlarim ,  
Meni bilog'onlarim?  
Bugun hamma sog'lommi?  
Darsga hamma tayyormi?

**O'quvchi:**

Ustoz bizlar sog'lommiz,  
Darsga to'liq tayyormiz  
O'qituvchi: Oltin qoidani yodga olish

**O'qituvchi:**

Bir haftada yeti kun,  
Yeti kunu, yeti tun  
To'g'ri ayting bolalar  
Ayting bugun qaysi kun?  
Qani bizning navbatchi?  
Har narsadn xabarchi.

**Navbatchi:**


1. Bugun men(..... )Sinfda navbatchiman.

2. Bugun men(.... ) Sinfda navbatchiman.

1. Bugun 27 -fevral haftaning juma kuni. Qish faslining so'nggi oyi. (Qishga ta'rif beriladi).

**O'qituvchi:**

Juma kuni qanday nomlanadi?



**Hamma :** Ma'naviyat kuni

**O'quvchi:**

Haftaning kunlariga ,  
Har-xil nomlar qo'yilgan.  
Bugun juma kunimiz,  
Ma'naviyatga bag'ishlangan.  
Ma'naviyat insonning,  
Bilsang asl gultoji.  
Shu sababli barchamiz,

Ma'naviyatli bo'lamiz.

**O'qituvchi:**

O'ylab ko'ring bolajonlar yilimiz qanday nomlandi?

**O'quvchi:** Prezidentimiz I. A.Karimov 2015 -yilni "Keksalarni e'zozlash yili"- deb e'lon qildilar.

**O'qituvchi:** Kimlar yilimizga atab maqollar aytib beradi?

- 1.Qarisi bor uyning parisi bor.
- 2.Qari bilganni pari bilmas!
- 3.Qari kelsa oshga, yosh keladi ishga.
- 4.

**O'qituvchi:**

Qani ayting bolajonlarim,  
Bilimga chanqoq donolarim,  
Hozir qanday dars ekan?

**Hamma:**

Tarbiyaviy soat

**O'quvchi:**

Hamma ishning boshida  
Tarbiya turur  
Bilsangizchi ustozim  
Qalbimizda nur.  
Tarbiyaning maskani  
Oila va maktab erur  
Oila, maktab, mahalla  
Hamdo'stlikda ish qilur

## **O'qituvchi:**

Bolajonlar bugungi darsimizni noan'anaviy tarzda olib boramiz. Siz bilan biz sevib tinglaydigan "Sholg'om ertagi" asosida olib boramiz. Avval sinfni uch guruhga bo'lib olamiz. Har bir guruh o'zini tanishtiradi.

### **1 guruh: Zukkolar**

Bizlar zukko bolajonlar,  
Biyron-biyron so'zlaymiz.  
Shu sababli guruhimizni,  
Zukkolar deb nomlaymiz.

### **2 guruh: Bilimdonlar**

O'qib o'rganishdan hech ,  
Charchamaymiz tolmaymiz,  
Chunki bizlar bilimdon ,  
Bolajonla bo'lgaymiz .

### **3 guruh: Donolar**

Har narsani bilguvchi ,  
Tezda javob berguvchi,  
Biz donolar bo'lamiz,  
Bundan kuchga to'lamiz.

**O'qituvchi:** Mana endi guruhlarga bo'linib oldik. Endi ertagimizni ham boshlasak bo'ladi. Bir bor ekan, bir yo'q ekan qadim zamonda chol, kampir va ularning nevarasi o'rmon yaqinidagi uyda yashar ekan. Ularning kuchugi va mushugi ham bor ekan. Bir kuni chol tomorqasida sholg'om ekibdi. Sholg'omga suv qo'yib, tagini parvarish qilibdi. Oradan bir qancha vaqt o'tibdi. Chol sholg'omni ko'rgani boribdi. Qarasa sholg'om katta bo'lib ketibdi. Chol sholg'omni tortibdi, tortibdi, torta olmabdi. Shunda u kampirini yordamga chaqiribdi. Mana aziz bolajonlar kampir yordamga kelishi uchun siz

o'tilgan mavzuni qay darajada o'zlashtirganingizni namoyish etishingiz kerak bo'ladi.

*(Har bir guruhga tezkor savollar)*

### **1.guruh Zukkolar**

1.Buyuk bobolarimiz kimlar?

*J:Alisher Navoiy, Mirzo bobur, Amir Temur,Mirzo Ulug'bek, Ibin Sino*

2.Vatanimiz nomi?

J: O'zbekiston

3.Alifboda nechta harf bor?

J:29 ta

4. Bir hafta nechta kundan iborat?

J: 7 kundan iborat.

5.O'zi bitta, bolasi ming-minglab?

J: Oy va yulduz

2.Guruh: Bilimdonlar

1. Alifboda nechta tovush bor?

J: 30 ta

2.Bobomiz A.Navoiy qayerda tug'ilgan?

J: 1441 -yil 9 -fevralda Hirot shahrida.

3.Bayrog'imizda necha xil rang bor?

J: 4 ta rang

4.Madhiyamiz so'zining muallifi kim?

J:Abdulla Oripov

5.O'zbekistonning poytaxti qayer?

J: Toshkent

### **3.guruh: Donolar**

1. 8-dekabr qanday kun?

J: Konstitutsiya kuni

2. Bayrog'imizning tug'ilgan kuni qachon?

J: 1991 -yil 18 -noyabr

3. Sobirda 8 ta olma, u 2 tasini yeb qo'ydi, Sobirda nechta olma qoldi?

J: 6 ta

4. Zahiriddin Muhammad Bobur kim bo'lgan?

J: Shoh, shoir, olim.

**O'qituvchi:** juda yaxshi , mana mavzular bo'yicha qanday bilimga ega bo'lganligingizni ham bilib oldik, uyga qanday vazifa berilgan?

**O'quvchi:** "Sog' yuray desang , ozoda bo'l"

**O'qituvchi:** Sog'lom bo'lishimiz uchun biz nimalarga e'tibor berishimiz kerak?

**O'quvchi:**

Sog' tanda, sog'lom aql!

Degan bizning bobolar,

Bu so'z to'g'ri, bu so'zga.

Amal qiling bolalar.

**O'quvchi:**

Bu so'z to'g'ri, bu so'zga,

Men ham amal qilaman.

Ozoda bo'lish ishin,

Vazifam deb bilaman.

**O'qituvchi:** Buyuk bobomiz Ibn Sino sog' yurish uchun nima deganlar?

**O'quvchi:**

Agar dunyoda, chang bilan g'ubor bo'lmasa, inson ming yoshga kirishi mumkin deganlar.

**O'qituvchi:** Ibn Sino hazratlari kim bo'lgan? J: Buyuk olim, tibbiyot asoschisi, tabib bo'lganlar.

**O'qituvchi:** "O'rgimchimchak turi" texnologiyasi foydalanib savol-javob o'yinini o'ynaymiz. *(Shar ko'rinishidagi ipni olib, uni o'qituvchi istalgan o'quvchiga uloqtiradi, to'pni ilib olgan o'quvchi, o'qituvchisi bergan savolga javob berishi kerak.)*



**O'qituvchi:** Orastalik nima?

**O'quvchi:** Doimo toza yurish, saranjom-sarishta bo'lish

**O'qituvchi:** Orasta yurish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

**O'quvchi:** Biz maktabga kelayotganimizda formada, uyda esa uy kiyimlarida, dam olishda tungi kiyimlarda bo'lishimiz - bu orastalik belgisi.

**O'qituvchi:** Onangizga uy yumushlarini bajarishda qanday yordam berishingiz kerak?

**O'quvchi:** O'z kiyimlarimni tartibga solib qo'yaman, uy yumushlariga qarashaman.

**O'qituvchi:** Ovqatlanish odobi haqida qanday tushunchaga egasiz?

**O'quvchi** Shaxsiy gigiyenaga amal qilish, qo'lni yuvib, keyin o'z vaqtida ovqatlanish kerak

**O'qituvchi:** Ibn Sino bobomiz orastalik haqida nimalarni aytadilar?

**O'quvchi:** Badan tarbiya, kuch etar hadya

**O'quvchi:** Yeb bo'lib ovqat, yugurma faqat

**O'quvchi :** Ozoda hovli, kasaldan holi

**O'quvchi:** Oshni taklifsiz, boshlar tartibsiz.

**O'qituvchi:** Juda yaxshi, mavzular bo'yicha bilimingizni bilib oldik. Sizlar yaxshi javob berganligingiz uchun , kampir cholga yordamga kelibdi. Ular birgalashib sholg'omni tortibdi, tortibdi , lekin tortisha olmabdi. Ular qarib qolganligi uchun ham, charchab qolishibdi. Biz ham charchadik, ashula aytamiz.

**O'qituvchi:** Shunday qilib ular nevarasini yordamga chaqiribdi. Ular yordamga kelishi uchun navbatdagi vazifani bajarishingiz kerak bo'ladi.

### **III. Yangi mavzuni bayoni "Biz tinchlik istaymiz" so'zlari doskaga yoziladi.**

Bobomiz Navoiy aytganlaridek:

Olam ahli bilingizkim,

Ish emas dushmanlig',

Yor bo'ling bir- biringizgakim,

Bulur yorlig' ish.

Biz tinchlikni istaymiz. Ona yurtimiz tinch va go'zal. Yurtimiz bag'rida tinch o'ynab, quvnab yashamoqdamiz. Tinch yurtimiz bag'rida a'lo baxolarga o'qib yurtimiz ravnaqi uchun hissa qo'shish, barcha o'quvchilar oldidagi burchdir. Shunday ekan, hammamiz tinchlikning qadriga yetmog'imiz darkor.

Urush- bu bombalarning daxshatli portlashi, uylarning vayron bo'lishi, yuzlab, minglab odamlarning halok bo'lishi demakdir.



Urush noming uhsin jahonda,  
Hamon bitmas, sen solgan alam.  
Sen tufayli ko'p xonadonda,  
Ota nomi buyuk shodlik kam.

**O'qituvchi:** Bolajonlar siz savolga to'g'ri javob berganligingiz uchun nabira yordamga kelibdi. Ular birgalikda sholg'omni tortibdi, tortibdi ,lekin tortisha olmabdi. Nabira kuchugini yordamga chaqiribdi. Siz to'g'ri javob bersangiz kuchukcha yordamga keladi.

### "Tinchlik" so'zini klaster usulida izohlang!

*(Bu topshiriqda o'quvchilar moychechak gulini hosil qilish uchun , gulning kerakli qismlarini o'z o'rnida joylashtirishlari talab qilinadi. Shart oxirida gul ko'rinishi quyidagi suratdek bo'lishi lozim.)*



Bolajonlar siz bu vazifani bajarib, kuchukchani yordam berishiga yo'l ochdingiz. Ular yana birgalikda sholg'omni tortishibdi, tortishibdi, lekin tortisha olmabdi . Shunda kuchukcha, mushukchani yordamga chaqiribdi.

Buning uchun biz darsimizning navbatdagi bosqichini bajarishimiz kerak .

**O'quvchi;**

Doim qushlar sayrasin quvnoq,  
Chaman bo'lib yashnasin gulbog'.  
Yer yuzida barcha arg'imchoq  
Sho'x aylansin bo'lib vaqtichoq.  
Tongda turib orziqib shodon ,  
Shoshilaylik do'stimiz tomon,  
Do'stlar bilan g'ururga to'lib,  
Ona yurtni ho'p yaxshi ko'rib.  
Bolajonlar qilsin tabassum,  
Ko'kni tutin bosmasin bir zum.  
Shu zaminda go'zal, beg'ubor,  
Tinchlik so'zi bo'lsin barqaror.  
Tinchlik bo'lsin doimo,  
Osmon bo'lsin musaffo!  
Quyoshdek kulsin dunyo,  
Urush bo'lmasin aslo!  
Bog'imiz tinchlik bog'i,  
Oftob kabi quchog'i.  
Tongdan yashnab ketadi,  
Hamma yayrab ketadi.  
Tinchlik uchun kurashaylik,  
Hammamiz birday.

Tinchlik bo'lsa, quyosh ham,  
Nur sochar durday.

Tinchlik bo'lsa, qushlar ham,  
Quvnab sayraydi.

Tinchlik bo'lsa quyosh ham,  
Kuylab yayraydi.

Tinchlik bo'lsa, bu keng olam,  
Munavvar bo'lur.

Tinchlik bo'lsa, xalq hayoti  
Shodlikka to'lur

Tinchlik so'zi urushlarni,  
Naqd o'ldiradi.

Tinchlik so'zi bu olamga,  
Baxt keltiradi.

Vatan uzra qiladi parvoz,  
Tinchlik nomli oppoq kabutar.

Huzur bular dillarda qachon,  
Tinchlik bo'lsa, dunyoda agar!

Ko'm-ko'k bo'lsin, hamisha osmon  
Shodliklarga ko'milsin turmush.

Inson qalbi o'rtanmasin hech,  
Do'stlar, sira bo'lmasin urush.

Tinchlik qushi oq kabutar,

Yayrab qanot qoq kabutar.

Qanotlaring silkitib ,

Balandlarga uch kabutar.

Baland bo'lsin parvozing,

Yurt osmonim top-toza.

Tinchlikdan berib darak ,

Yuksaklarni quch kabutar.

Barakalla bolajonlar, buyuklarimizdan biz qaysi bobolarimizni tug'ilgan kunlarini nishonladik.

**O'quvchi:** Biz buyuk bobomiz Alisher Navoiyning besh yuz yetmish to'rt yilligini nishonladik. Ular bir ming to'rt yuz qirq birinchi yil 9- fevralda Hirot shahrida tug'ilganlar. Bizga juda ko'p she'rlar yozib qoldirganlar.

**Sahnaviy ko'rinish.**

Barakalla bolajonlar! Tinchlik haqida maqollar bilasizmi?

**Hamma:**

Ha, bilamiz kuylaymiz,

Tinchlikni ulug'laymiz.

**O'quvchi:** Olam tinch – xonam tinch

**O'quvchi:** Och yur, tinch yur.

**O'quvchi:** Och qornim tinch qulog'im.

**O'quvchi:** Tinch elning bog'i gullar.

**O'quvchi:** Tinchliging -hurliging.

**O'quvchi:** Tinchlik – baxt, sog'lik –taxt.

**O'quvchi:** Tinchlik bilan el ko'karar ,yomg'ir bilan yer.

**O'quvchi:** Tinchlik- urushni yengar.

**O'quvchi:** Urush - ofat ,tinchlik -farog'at.

**O'qituvchi:**

Xo'sh , aziz bolajonlar!  
Bahor eshik qoqmoqda,  
Bayramlar ulanmoqda,  
Bahorning ilk kunida,  
Qanday bayram bo'ladi?

**O'quvchi:**

Topdim aziz ustozim,  
O'zbekning go'zal qizi,  
Tinchligimiz ko'ychisi,  
Sadoqatda yagona,  
Zulfiya ayamizning  
100 yilligi bo'ladi.

**O'qituvchi:**

Ana onaxonimiz ham tashrif buyurdi. *(Sahnaga Zulfiyaxonim ko'rinishida o'quvchi kirib keladi)*

**Zulfiyaxonim:**

Salom mening aziz dugonalarim  
Azizim, lo'barim, chevarim qizlar,  
Ey, toza qalbimning oshnolari,  
Kuylarim, ilhomim, sevarim qizlar.  
Qahramon yigitlar kechirsin, meni!  
Bu gal ham qo'shig'im sizlarga doir.

**IV .Mustahkamlash:**

## **“Aqliy hujum”**

### **V.O’quvchilarni baholash:**

Guruhlar to’plagan ballari e’lon qilinadi va nihoyat sichqon ularga yordamga kelibdi. Ular sholg’omni tortishibdi, tortishibdi sholg’omni tortib chiqaribdilar. Chol bilan kampir sholg’omni uyiga olib kelishibdi. Kampir sholg’omdan shirin sho’rva tayyorlabdi. Qo’ni- qo’shnilarni ham mehmonga chaqirib, sho’rvani birgalikda baham ko’rishibdi.

**Savol:** Qani bolajonlar, siz bu ertakdan o’zingiz uchun qanday xulosa chiqardingiz?

*(O’quvchilar fikri tinglanadi, rag’batlantiriladi)*

### **VI. Uyga vazifa:**

**“Tinchlik” haqida maqollar yod olish.**

#### **O’qituvchi:**

Ilm-u odob, mehringizdan  
Hurmatingiz yuksaldi,  
Quvvat olib sehringizdan,  
Darsimiz ham tugadi.

Chirchiq shahar

XTMFMT va TIB tasarrufidagi

11- umum o’rta maktabining

boshlang’ich sinf

o’qituvchisi Aliyeva Matluba

Qurbonovna